

13. World Bank, (2024), *World Development Indicators 2024*, Washington, DC: World Bank.

14. Wooldridge, J.M., (2010), *Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data*, 2nd ed., Cambridge, MA: MIT Press.

15. Жураев, Б.Ю., (2022), 'Ўзбекистонда ислом молиясини ривожлантиришнинг институционал асослари', *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 5(2), pp. 45–53.

UMUMIY FOYDALANISHDAGI AVTOMOBIL YO'LLARINI MOLIYALASHTIRISHNING TASHKILY VA HUQUQIY ASOSLARI

Pardayev Fayzulla Gaffarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti PhD katta o'qituvchisi

Bugungi globalashuv va urbanizatsiya sharoitida transport infratuzilmasining, xususan, avtomobil yo'llarining rivojlanganligi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlarida ham avtomobil yo'llarini modernizatsiya qilish, ularni xalqaro talablar darajasiga olib chiqish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berilgan.

Avtomobil yo'llarini barqaror moliyalashtirish muammosini hal etish maqsadida jahon amaliyotida yo'l jamg'armalarini tashkil etish keng tarqalgan. Bunday jamg'armalar, odatda, yo'l foydalanuvchilari tomonidan to'lanadigan yig'imlar, soliqlar va maqsadli daromadlar hisobiga shakllantiriladi hamda yo'l sohasini uzluksiz va maqsadli moliyalashtirish imkonini beradi.

Yo'l foydalanuvchilarning to'lovlari to'g'ridan - to'g'ri harakat qatnashchilaridan undiriladigan soliq va yig'imlarga tegishli bo'lib, ularga yoqilg'i solig'i yoki yig'imlar, Respublika hududiga transport vositalarini olib kirganlik uchun va chet el transport vositalari boshqa davlat hududidan o'tgandagi boj tulovlari hamda boshqa shu kabi yig'im va bojlar hisobiga shakllanadi.

Respublikamizda 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozini ko'rib chiqilishi jarayonida, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bekor qilindi va ayrim jamg'armalar tugatildi, ayrimlarida ilgari bajarib kelingan funksiyalariga o'zgartirish kiritildi. Ushbu qaror asosida Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi tasarrufiga o'tkazildi. Shuningdek, yo'l xo'jaligi sohasidagi qurilish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlash bo'yicha manzilli dasturlarni moliyalashtirish va kelishish hamda avtomobil yo'llaridan

foydalanish va saqlash bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish Moliya vazirligi zimmasiga yuklatildi²⁷³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 dekabrda PF № 5890-sonli farmoniga asosan avtomobil yo'llarini loyihalash, yo'l-qurilish ishlarini, shuningdek, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda ekspluatatsiya ishlarini moliyalashtirish uchun yo'naltiriladigan mablag'larni to'plash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzurida Avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasi²⁷⁴ tashkil etildi.

Ushbu jamg'armani boshqarishda tizimning institutsional tuzilmasi quyidagi rasmda aks ettirildi.

Quyida har bir element va ular o'rtasidagi aloqalar izohlanadi. Asosiy ishtirokchilar:

1. Vazirlar Mahkamasi– Tizimning eng yuqori darajadagi muvofiqlashtiruvchi va nazorat qiluvchi organi hisoblanadi. Quyidagi tashkilotlar unga hisobdor sanaladi:

– Transport vazirligi, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi hamda vazirlik huzuridagi avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasi departamenti.

2. Transport vazirligi – Avtomobil yo'llari qo'mitasi unga hisobdor.

– Moliyalashtirish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi, va ular bilan kelishiladi.

3. Iqtisodiyot va Moliya vazirligi - Davlat byudjetidan yo'l xo'jaligi uchun mablag'lar ajratadi. Avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasi unga hisobdor.


4. Avtomobil yo'llari qo'mitasi - Yo'llarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash bo'yicha asosiy ijrochi tashkilot. quyidagi tuzilmalar unga hisobdor: Unitar korxonalar, pudratchilar. Qomita pudratchilar hamda unitar korxonalar bilan shartnoma tuzadi va Avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasi orqali to'lovlarni amalga oshiradi.

5. Avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasi – Yo'l sohasini bevosita moliyalashtiruvchi tashkilot. Moliyalashtirish bo'yicha qarorlarni Avtomobil yo'llari qo'mitasiga etkazadi. Iqtisodiyot va Moliya vazirligiga hisobdor.

6. Unitar korxonalar va pudratchilar - yo'l qurilishi va ta'miri bo'yicha amaliy ishlarni bajaruvchi subyektlar. shartnomalar asosida ishlaydi.

²⁷³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил асосий макроиқтисодий кўрсаткичлар прогнози ва давлат бюджети параметрлари ҳамда 2020-2021 йилларга бюджет мўлжаллари тўғрисида” Тошкент ш. 2018 йил 26 декабрь ПҚ № 4086- сон қарори.

²⁷⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси йўл хўжалик тизимини чуқур ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” фармон. Тошкент ш. 2019 йил 9 декабрь ПФ № 5890- сон.



1.1-rasm. Avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasining boshqaruv tuzilmasi (2019 yildan)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 dekabrda 5890-son farmoni asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Shuningdek, shaharlar va boshqa aholi punktlari ko'chalarida, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarida (keyingi o'rinlarda - mintaqaviy yo'llar) loyihalash, yo'l-qurilish, ta'mirlash va ekspluatatsiya ishlarini moliyalashtirish uchun yo'naltiriladigan mablag'larni to'plash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi moliya bosh boshqarmalari tarkibida avtomobil yo'llarini rivojlantirish hududiy maqsadli jamg'armalari ham tashkil etildi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi 2019 yilda bekor qilinganidan keyin, yo'l foydalanuvchilaridan olinadigan asosiy yig'imlar ham bekor qilindi.

Avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasi endi yo'ldan foydalanuvchilardan maqsadli yig'imlar olmaydi va buning o'rniga yillik byudjetdan ajratiladigan mablag'larga bog'liq bo'lib qoldi.

Xulosa sifatida, Mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va logistika jozibadorligi bevosita avtomobil yo'llari tarmog'ining sifatiga bog'liq. Shu sababli, Avtomobil yo'llarini rivojlantirish Respublika maqsadli jamg'armasi faoliyatini modernizatsiya qilish tizimli islohotlarning o'zagini tashkil etishi lozim. Jamg'armaning tashkiliy-huquqiy maqomini aniq belgilash va uning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash — yo'l infratuzilmasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning asosiy drayveridir. Ushbu islohotlar nafaqat yo'llar sifatini

yaxshilaydi, balki mamlakatning xalqaro tranzit yo'laklaridagi o'rnini mustahkamlab, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi.

Shuningdek, Avtomobil yo'llarini rivojlantirish Respublika maqsadli jamg'armasining tashkiliy-huquqiy maqomini aniq belgilash, hisobotdorlik va audit mexanizmlarini joriy etish mamlakatda yo'l infratuzilmasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirishning asosiy sharti sifatida qaralishi dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasining. Avtomobil yo'llari to'g'risida qonuni. Toshkent sh. 2007 yil 2 oktyabr. O'RQ-117. <https://gov.uz/uzavtoyul/>*

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yo'l xo'jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni Toshkent sh. 2019 yil 9 dekabrda PF-5890-son.*

3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yo'l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" qarori Toshkent sh. 2019 yil 9 dekabr PQ-4545-son.*

5. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019-yil uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini prognoz qilish va davlat byudjeti parametrlari, shuningdek, 2020-2021-yillar uchun byudjet maqsadli ko'rsatkichlari to'g'risida"gi Qarori, Toshkent, PQ-4086.*

6. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. Toshkent sh. 2023 yil 10 oktyabr PQ-330-son.*

7. *Gulyamov S.S., Jumayev N.X., Raxmonov D.A., Tashxodjayev M.M. Ijtimoiy sohada investitsiyalarning samaradorligi. Monografiya. –T.: IQTISODIYOT, 2019. – 342 b.*

8. *Mexanizmi finansirovaniya dorojnoy infrastrukturi v Rossii i mire. Moskva 2015 <https://books.google.co.uz/books?id>.*

ISLOMIY MOLIYA PRINSIPLARI VA ULARNI QO'LLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

***Safarova Nodira Ashuralievna
Ulashov Diyor Javodovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti***

Annotatsiya. Mazkur tezisdan O'zbekiston moliya bozorini diversifikatsiya qilish, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini oshirish hamda